


## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-may holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 11 519 tani tashkil etdi, shundan 9 403 tasi yoki 81,6 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etdi.



*Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).*



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>2025</b>	11 519	9 480	9 403
<b>2024</b>	12 768	10 594	10 522
<b>2023</b>	13 797	11 669	11 602
<b>2022</b>	16 293	14 200	14 124
<b>2021</b>	15 926	13 903	13 842

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida – 24,8 foiz, Sirdaryo – 12,5 foiz, Boyovut – 9,2 foiz, Sardoba – 8,9 foiz va Mirzaobod – 8,5 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonidagi salmoqli ulushi Sardobada – 87,8 foiz va 87,3 foiz, Yangiyer shahrida – 87,7 va 87,3 foiz, Mirzaobod – 84,6 foiz va 83,7 foiz hamda Oqoltin – 83,8 foiz va 83,7 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Guliston sh.	2855	2313	2286
Yangiyer sh.	277	214	211
Shirin sh.	830	728	725
Boyovut tumani	1054	834	828
Guliston tumani	820	665	664
Mirzaobod tumani	984	832	824
Oqoltin tumani	743	623	622
Sayxunobod tumani	806	650	644
Sardoba tumani	1022	897	892
Sirdaryo tumani	1439	1201	1188
Xovos tumani	689	523	519

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-may holatiga 30,9 foizni (37,6 foiz va 37,8 foiz) tashkil etdi. Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 15,9 foiz (19,2 foiz va 19,2 foiz), uchinchi o'rinda "Sanoat" 10,0 foiz (12,1 foiz va 11,9 foiz).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 56,9 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 834	1 819	1 809
Sanoat	1 155	1 150	1 121
Qurilish	798	788	783
Savdo	3 561	3 560	3 555
Tashish va saqlash	271	270	269
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	651	649	648
Axborot va aloqa	175	164	162
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	178	132	127
Boshqa turlar	2 896	948	929

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, 9 480 ta faol tijorat korxonalaridan 8 118 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.

### *Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)*

	2021	2022	2023	2024	2025
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 213	11 070	9 713	8 982	8 118
Xususiy korxonalar	2 947	2 421	1 376	1 089	937
Oilaviy korxonalar	354	345	246	319	273
Aksiyadorlik jamiyati	20	22	13	12	12
Boshqalar	369	342	321	192	140

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	8 118	85,6
Xususiy korxonalar	937	9,9
Oilaviy korxonalar	273	2,9
Aksiyadorlik jamiyati	12	0,1
Boshqalar	140	1,5


Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

## III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar

bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 237 ta korxonalaridan 79 tasi qo'shma korxonalar va 158 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 24 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 98 tadan 121 taga, (o'sish 23 taga), axborot va aloqa sohasida 10 tadan 20 taga (o'sish 10 taga) va tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasida 4 tadan 8 taga (o'sish 4 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>237</b>	<b>79</b>	<b>158</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	27	12	15
Sanoat	121	44	77
Qurilish	5	2	3
Savdo	42	10	32
Tashish va saqlash	8	5	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	1
Axborot va aloqa	20	-	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	12	5	7

### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 99 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 41,8 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (13,9 %), Turkiya (11,4 %), Tojikiston (6,3 %) va Afg'oniston (5,5 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>237</b>	<b>79</b>	<b>158</b>
Xitoy	99	27	72
Rossiya	33	12	21
Turkiya	27	11	16
Tojikiston	15	4	11
Afg'oniston	13	4	9
Qozog'iston	13	5	8
Qirg'iziston	7	2	5
BAA	7	1	6
Buyuk Britaniya	6	3	3
Janubiy Koreya	5	-	5
Ozarbayjon	5	3	2
Pokiston	4	2	2
AQSH	2	2	-

#### IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### **Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
B. Axmedov  
67 236-70-00 (2060)

**Maznil:**  
120100, Guliston sh.,  
Birlashgan ko'chasi, 62

---